

## MUALLIFLIK HUQUQI VA TURDOSH HUQUQLAR SOHASIDA INTERAKTIV DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI

**To'xtayev Vahob Oripovich**

*Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti*

Mualliflik va turdosh huquqlar haqida gap ketganda eng avvalo ularning rivojlanish evolyutsiyasiga aolida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tan olish kerakki mualliflik huquq va turdosh huquqlar tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi.

Mualliflik huquqi to'g'risidagi qonun hujjatlari nisbatan uzoq tarixga ega va uning ildizlari bosib chiqarish texnologiyasining paydo bo'lishi bilan izohlanishi mumkin, bu esa bir nechta nusxalarni tez va nisbatan arzon narxda chop etish imkonini beradi. Finnian va Kolumbusning mualliflik huquqi to'g'risidagi ish birinchi yozuv ishi hisoblanadi.<sup>9</sup> Bundan kelib chiqadiki mualliflik huquqini taraqqiy etishi miloddan avvalgi 500-600-yillarga borib taqaladi. Buning asosiy sabablaridan biri hunarmandlar tomonidan yartilgan ilk ish qurollari hamda zargarlik buyumlari bo'lsa ajab emas. Aynan o'sha tovar moddiy boyliklarni yartilishi oqibatida antic davr odamlari mulkka va boylikka ega bo'lish hislatlarini shakllantirib boshlashgan. Ammo bundan 200 yillar muqaddan Yevropa davlatlarida intellectual faoliyat natijasi bo'lgan nomodiy boyliklarga o'z nomini va himoya hamda muhofazani talab qilish jarayoni jadallasha brogan.

XV asrning oxirida ikkita ixtiro hamma narsani o'zgartirdi. Matbuot (nashr qilish) sivilizatsiyaga boshqa ixtirolarga qaraganda ko'proq o'z ta'sirini ko'rsatgan deb ta'kidlash mumkin. Gutenberg birinchi marta 1455-yilda ishlatiladigan harakatlanuvchi shriftni ixtiro qildi, Kakston esa bosmaxonani ishlab chiqdi va 1478-yilda birinchi bestseller hisoblangan Chaucerning - Kenterber hikoyalarini nashrdan chiqardi<sup>10</sup>.

Asar birinchi marta e'lon qilinganda muallif sifatida ko'rsatilgan shaxs, agar boshqacha hol isbotlanmagan bo'lsa, asar muallifi hisoblanadi. Fuqarolik huquqida bu holat "mualliflik preziumpsiyasi" – deb yuritiladi<sup>11</sup>. Mualliflik va turdosh huquqlari haqida so'z borganda eng avvalo ushbu mulk huquqining obyektlariga alohida to'xtalmaslikni iloji yo'q. Mualliflik huquqi obyekt bo'lishi uchun esa albatta ijodiylik mahsuli bo'lgan ijod namunasi yaratilishi hamda obyektiv shaklda namoyon qilinishi shart. Bu yerda ijod namunalarining omma e'tiboriga oshkor qilinganligi yoki oshkor qilinmaganligi muhim ahamiyat kasb etmaydi.. Bunda albatta Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risidagi O'zbekiston

<sup>9</sup>Bowker, R.R. (1912) Copyright: Its History and its Law, Houghton Mifflin.

<sup>10</sup>I.B.Yakubova. Mualliflik huquqi. O'quv qo'llanma. – T.: TDYU nashriyoti, 2020. – 14 b.

<sup>11</sup> Imomov. N, Axmadjonov. B. Intellektual mulk huquqi. O'quv qo'llanma. Qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashr/ y.f.d.,prof. O. Oqyulovning umumiy tahriri ostida. –Toshkent.: TDYU, 2010. -82 bet.

Respublikasi qonunining 5-moddasiga murojaat qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Unga ko'ra quyidagilar mualliflik huquqining obyektlari hisoblanadi:

yozma asarlar (bunda qo'l mehnati bilan yoki yozuv mashinalari orqali yartailgan asarlar ham kirishi mumkin)

og'zaki asarlar (bunda barchaning e'tiboriga yetkazish uchun omma oldida ijro qilish yoki kuylash)

ovoz yordamida yoki videoyozuv orqali (bunda optik, raqamli yoki mexanik shaklda namoyon bo'lishi mumkin)

tasvirlar (bunda asosan manzarali suratlar, rasmlar, eskizlar, kino, video va dizayn asarlar)

hajmli-fazoviy asar namunalari (bunda inshootlar, haykallar, maketlar va boshqa shunga o'xshash obyektlar)

Mualliflik huquqi obyektlarining o'ziga xosligi shundaki ular konsepsiyalar, g'oyalar, fikrlar, qarashlar yoki mavhum bo'lgan tushunchalarni obyekt sifatida qabul qilmaydi, balki asosiy urg'u moddiy shaklda mavjud bo'ladigan asarlarga nisbatan obyektlarga tadbiq etiladi.

Bunda yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, asar mavjud bo'lishining (ifodalanishining) muayyan shakli uni mualliflik huquqi obyekt sifatida e'tirof etish uchun ahamiyatga ega emas<sup>12</sup>.

Muallifning mutlaq huquqlari uning mulkiy huquqlari deb ataladi, chunki kimning haqini, daromadini yoki foydasini olishidan qat'i nazar, asardan foydalanish har doim ma'lum mulkiy foyda keltiradi.<sup>13</sup> Ya'ni muallif fikridan shu narsa ayon bo'ladiki muallifning o'zi yaratgan ijod namunalariidan foyda yoki doimiy daromad olib turishi bu uning mutloq huqqi hisoblanadi ya'ni muallif o'zi yaratgan asar o'zi to'la egalik qiladi. Biroq, muallif fikrga qisman qo'shilgan holda shuni aytib o'tish kerakki muallif yoki ijodkor tomonidan yartilgan asar ma'lum bir jamiyatning ko'magi ostida va yordamida amalga oshiriladi. Bu esa o'sha ijodkor yoki muallifning boshqalar bilan asarlarini bo'lishish zaruriyatini keltirib chiqaradi deb o'ylaymiz. Chunki, tirok mavjudotning rivojlanishi va jamiyatda faoliyat yuritishi uchun albatta atrof-muhitning roli judayam muhim hisoblanadi. Mualliflik huquqlaridan foydalanishda bir nechta usullardan foydalanish mumkinligini ko'rib chiqish mumkin ya'ni muallif o'zi yaratgan asardan mutloq shaklda quyidagi usullarda foydalanishim mumkinligini ko'rishimiz mumkin:

tarqatish huquqi orqali – buni turlli yo'llar orqalldi amalga oshirish mumkin bo'lib, masalan, asar nusxalarini xoxlagan miqdorda va summada sotish yoki ijod namunasini ma'lum bir qisqa va uzoq muddatlarda ijaraga berish orqali va boshqa usullar orqali foydalanishi;

<sup>12</sup> Mustafaqulov, Bekzod Alimnazar O'G'Li MUALLIFLIK HUQUQINING SHAKLLANISHIDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNING AHAMIYATI // ORIENSS. 2022. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mualliflik-huquqining-shakllanishida-huquqiy-ong-va-huquqiy-madaniyatning-ahamiyati>.

<sup>13</sup> I.B.Yakubova. Xalqaro intellektual mulk huquqi. O'quv qo'llanma. – T.: TDYU nashriyoti, 2021. – 31 b.

ommaviy namoyish qilish huquqi – bunda muallif tomonidan yaratilgan asar bevosita ekranda televizorda kino shaklda yoki boshqa texnikalar yordamida barcha uchun ochiq bo'lgan jamoat joylarida xoxlasa tekin xoxlasa pullik asosda namoyish etishi, shu bilan birga, jamoatchilik uchun efriga berishi yoki yozib olib keyin uni uzatishi;

ommaviy ijrochilik huquqi – bunda muallif yoki huquq egasi tomonidan o'ziga tegishli bo'lgan asarni yopiq inshootlarda kinosaroylarda, musiqa zallarida, konservatoriyada va usti ochiq va yopiq qurilish inshootlarida namoyish qila olishi;

asarni texnik vositalar ya'ni kabel yordamida omma e'tiboriga yetkazish huquqi - bunda muallif amaldagi qonunchilik hujjatlarida ta'qiqlanmagan asar yoki ijodiy natijasini mustaqil ravishda yoki buyurtma berish orqali omma e'tiboriga yetkazish mutlaqo mustqali bo'lishi, simli va simsiz kabellar yordamida efriga uzata olish va boshqa bir qator huquqlaridan foydalanishi mumkin.

Mualliflik huquqi bilan bog'liq qonun hujjatlar asar muallifining nomoddiy manfaatlarini to'liq himoya qilishga qaratilgan shaxsiy nomulkiy huquqlarning muayyan turlarini belgilaydi, xususan: muallifning ismi, mualliflik huquqi, asarni nashr qilish huquqi, asarning daxlsizligi huquqi.<sup>14</sup> Muallif tomonidan bildirilgan fikr asosli ekanligini tan olgan holda shuni alohida ta'kidlab ketish kerakki mualliflik huquqining mana shu yerida kamchilik mavjuddek tuyuldi. Ya'ni muallifning vafotidan keyin uning avlodlari tomonidan shaxsiy nomulkiy huquqlari himoya qilinadi hamda doimiy muhofaza obyektini hisoblanadi. Biroq nima uchun muallif tomonidan yaratilgan asarlarga bo'lgan mulkiy huquqlar uning merosxo'rlari tomonidan himoya qilinmasligi va undan foyda va daromad olinmasligi kerak. Bizningcha bugun har bir fuqaro o'zi va oila a'zolarining moliyaviy kafolatini xoxlaganligi bois amalfagi qonunchilik hujjatlar ushbu sohada o'zgartirish va qo'shimchalarga ehtiyoj sezayotganini payqash mumkin. Endi bevosita mualliflik huquqi yoki "Mualliflik preziumpsiyasi"ga to'xtaladigan bo'lsak mualliflik huquqi subyektlari tomonidan yaratilgan hamda har qanday asar yoki ijodiy faoliyat natijasi fan, adabiyot yoki san'at asarining yaratilish faktining o'zi o'sha subyektga nisbatan mualliflik huquqi yuzaga kelganligini anglatadi. Bunda hech bir rasmiyatchilikka o'rin qolmaydi. Aytmoqchimizki ushbu holat na davlat tomonidan na nodavlat tashkilotlar tomonidan biror bir ro'yxatga olishni yoki reyestruga kiritilishni nazarda tutmaydi. Biz yuqorida bir necha bor takrorladiki mualliflik va turdosh huquq egalari o'zlari egalik qilayotgan asarlardan yoki ijodiy faoliyat natijalaridan o'zlari istaganlaridek foydalanishlari mumkin biroq uni amlaga oshirish "Mualliflik shartnomasi" orqali amalga oshirilishi belgilangan. Aynan ushbu shartnoma muallif va foydalanuvchi o'rtasidagi huquqiy ko'prik vazifasini bajaradi. Shartnoma tomonlarning huquq va majburiyatlarini to'liq ochib beradi va tomonlarga huquq va majburiyatlarni yuklaydi. Taraflar o'rtasida tuziladigan shartnomada huquqlardan qay shaklda foydalanishning tartib taomillari belgilanadi ya'ni muallif

<sup>14</sup>I.B.Yakubova. Xalqaro intellektual mulk huquqi. O'quv qo'llanma. – T.: TDYU nashriyoti, 2021. – 34 b.

tomonidan yaratilgan asarga bo'lgan mutloq huquq ham yoki qisman huquq ham foydalanuvchiga berilishi mumkinki, holat taraflarning o'zaro kelishuviga bog'liq.

Bevosita mualliflik va turdosh huquqlar yuzasidan xalqaro huquqqa murojaat qiladigan bo'lsak holat biroz boshqacharoq ekanligini payqash mumkin. Misol uchun, xalqaro huquqda xalqaro shartnomalar bo'yicha, adabiy va badiiy asar yaxshi bo'lishi yoki badiiy asarga ega bo'lishi shart emas. Biroq u asl bo'lishi kerak. Ushbu talabning aniq ma'nosi har bir mamlakatda turlicha bo'lib, ko'pincha qonunlar bilan belgilanadi.<sup>15</sup> Ya'ni muallif tomonidan ilgari surilayotgan fikrga ko'ra asarning mazmuni yoki shakli muhim emasligi lekin u asl nusxada bo'lishi ko'proq muhimligi ilgari surilmoqda. Bizningcha muallif tomonidan aytilayotgan fikrning tub mazmuni shundan iboratki asar boshqa asarlarga o'xshamasligi, original va o'ziga xos bo'lishligini nazarda tutilmoqda.

“Adabiy va badiiy asarlar” atamasi uni ifoda qilish uslubi va shaklidan qat'i nazar, adabiyot, fan va san'at sohasidagi har qanday mahsulotni qamrab oladi.<sup>16</sup>

Umuman olganda ham shunday bo'lishi maqsadga muvofiq ya'ni har qanday yaratilgan asar boshqa asarlardan ajralib turishi, uni takrorlamasligi, g'oyasining o'ziga xosligi bo'lishi lozim. O'shandagina muallif tomonidan ushbu asarga bo'lgan mutloq huquq talab etilsa hech qanday e'tirozga o'rin qolmagan bo'lardi. Shu bilan birga, mualliflik huquqi yuzasidan qabul qilingan eng qadimiy hujjatlardan biri 1886-yilda qabul qilingan Bern konvensiyasi hisoblanadi. Ushbu konvensiya o'z nomi bilan aytilganidek adabiy va badiiy asarlarni himoya qiladi. Biroq ushbu hujjatning e'tborga molik jihatlaridan biri shundaki dabiyy va badiiy asarlar uchun minimal talab sifatida qabul qilinadigan 50 yillik minimal talabdan ham kamroq talablarni uchratish mumkin. Misol uchun fotosurat asarlari hamda amaliy san'at asarlari uchun belgilangan muhofaza muddati ushbu asarlar tayyorlanganidan keyin 25 yilni tashkil etishini ko'rishimiz mumkin.

Ba'zi mamlakatlarda, masalan, Meksika (100 yil) va Kot-d'Ivuar (99 yil) mamlakatlarida mualliflik huquqining yanada uzoqroq davomiyligi ko'zda tutilgan.<sup>17</sup> Biroq biz bilamizki Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamda Yevropaning bir qator mamlakatlarida muallif vafot etgandan keyin 70 yilgacha uning shaxsiy mulkiy huquqlari himoya qilinishini nazarda tutadi. Ammo bir qator davlatlar tomonidan, masalan, Janubiy Koreya Respublikasi, AQSH, Oman, Nigeriya va Avstraliya kabi davlatlarda ham mualliflik huquqi himoyasining Bern konvensiyasida nazarda tutilganidan ko'ra ko'proq muddatlari belgilanganligini ko'rish mumkin. Bu shuni anglatadiki so'nggi vaqtlardagi talab va taklifdan kelib chiqib minimal muddat 50 yildan 70 yilga uzaytirish tendensiyasini faol tarzda kuzatish mumkin. Ushbu holat esa mualliflar uchun quvonarli holat deb aytish mumkin. Mualliflik huquqini himoya qilishda Bern konvensiyasidan tashqari biz bilamizki BIMT to'g'risidagi Mualliflik

<sup>15</sup>I.B.Yakubova. Xalqaro intellektual mulk huquqi. O'quv qo'llanma. – T.: TDYU nashriyoti, 2021. – 20 b.

<sup>16</sup>I.B.Yakubova. Xalqaro intellektual mulk huquqi. O'quv qo'llanma. – T.: TDYU nashriyoti, 2021. – 21 b.

<sup>17</sup>I.B.Yakubova. Xalqaro intellektual mulk huquqi. O'quv qo'llanma. – T.: TDYU nashriyoti, 2021. – 24 b.

shartnomasi (WCT) hamda ko'p tomonlama mualliflik shartnomalarini tartibga soladigan 2013-yilda tasdiqlangan Marokash shartnomalarini aytib o'tish mumkin. Mualliflik va turdosh huquqlarning sezilarli darajada rivojlanib borishining asosiy sababi xalqaro miqyosda ushbu sohada yaratilayotgan obyektlar xalqaro savdo va tijoratda kata o'rinni egallab borishi bilan ham bog'liq.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.1 Yakubova I.B. Xalqaro intellektual mulk huquqi. O'quv qo'llanma. – T.: TDYU nashriyoti, 2021. – 34 b.

1.2 Yakubova I.B. Mualliflik huquqi. O'quv qo'llanma.–T.:TDYU nashriyoti, 2020. – 14 b.

1.3 Imomov. N, Axmadjonov. B. Intellektual mulk huquqi. O'quv qo'llanma. Qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashr/ yu.f.d., prof. O. Oqyulovning umumiy tahriri ostida. –Toshkent.: TDYU,2010. – 224 bet.

1.4 Юлдашов А., Чориев М. Договорно-правовые отношения в области авторского права и ответственности за нарушение авторского права: национальный и зарубежный опыт //Общество и инновации. – 2020. – Т. 1. – №. 1/s.

1.5 Mustafaqulov, Bekzod Alimnazar O'G'LI MUALLIFLIK HUQUQINING SHAKLLANISHIDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNING AHAMIYATI // ORIENSS. 2022. №3.

URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mualliflik-huquqining-shakllanishida-huquqiy-ong-va-huquqiy-madaniyatning-ahamiyati> (дата обращения: 13.07.2023)